

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“TURIZM” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.48(575.1)

MATCHANOV AZIZBEK UMIRBEK O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH
MUAMMOLARI VA UNI HAL QILISH YO‘LLARI

710110401-“Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)”
mutaxassisligi bo‘yicha

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:


i.f.d.(DSc), professor A.N. Norchayev

TOSHKENT – 2024

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.


9 -sonli bayonnoma "24" aprel 2024 y.

Kafedra mudiri: Eshtayev.A


imzo

8.05.2024.
sana

Ilmiy rahbar: Norchayev.A


imzo

10.05.2024
sana

Talaba: Matchanov.A


imzo

10.05.2024
sana

dissertatsiya 2022-yil "7" dekabr

№ 1149 T raqami bilan ro'yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish muammolari va ularni hal etish yo'llarini tahlil qiladi. Tadqiqot, O'zbekistonda ichki turizmning joriy holati va uning rivojlanish imkoniyatlariga qaratilgan bo'lib, ichki turizm sohasidagi asosiy qiyinchiliklar, imkoniyatlar va kelajakdagi istiqbollar chuqur o'rganiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ichki turizmni yanada rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo'shish va aholining turizm sohasidan foydalanish darajasini oshirishdan iborat.

Dissertatsiya O'zbekistonning turizm sohasidagi mavjud qonunchilik bazasi, turizm infratuzilmasi, xizmatlar sifati va marketing strategiyalari kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, dissertatsiyada ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar hamda innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida, kvalitatif va miqdoriy tadqiqot usullari, jumladan ekspert interv'yuari, fokus guruhlar, so'rovnomalar va statistik tahlillar qo'llanilgan.

Natijada, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish uchun aniq takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu takliflar turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini yaxshilash, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish, samarali marketing strategiyalari ishlab chiqish va davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv mamlakat iqtisodiyoti uchun katta foyda keltirishi mumkin va aholining turizm sohasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, ichki turizm, turizm rivojlanishi, turizm infratuzilmasi, marketing strategiyalari, davlat-xususiy sherikchilik, innovatsiya.*

ABSTRACT

This dissertation examines the critical challenges facing the development of domestic tourism in Uzbekistan and proposes targeted strategies for overcoming these hurdles to enhance the sector's contribution to the national economy. Recognizing the pivotal role of tourism in economic development and cultural preservation, the study adopts a mixed-methods approach, combining qualitative insights from expert interviews and focus group discussions with quantitative data from surveys and statistical analyses.

Key challenges identified include infrastructural inadequacies, service quality deficits, lack of diversified tourism products, insufficient marketing efforts, financial and policy-related constraints, and the underutilization of cultural and historical assets. Drawing on both local experiences and international best practices, the research underscores the importance of a holistic approach to revitalizing Uzbekistan's domestic tourism sector.

The dissertation proposes a comprehensive framework for action, emphasizing infrastructure modernization, service quality enhancement, product diversification, effective marketing strategies, financial incentives, and public-private partnerships. It also highlights the need for a sustainable approach that balances economic goals with the preservation of cultural heritage and natural resources.

In conclusion, the study presents a set of scientifically grounded recommendations for policymakers, industry stakeholders, and communities, aimed at unlocking the full potential of domestic tourism in Uzbekistan as a catalyst for economic development, cultural enrichment, and social cohesion.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro`yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro`yxati.....	6
Keltirilgan qisqartmalar.....	6
KIRISH.....	7
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	7
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	9
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqotning ob`ekti va predmeti.....	10
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	11
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	11
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	13
1.2. Mavzuga oid mahalliy me`yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	19
1.3. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sharhi.....	23
II BOB. METODOLOGIYA.....	26
2.1. Ma`lumotlarni to`plash jarayoni.....	26
2.2. Tahlil uchun qo`llaniladigan usullar.....	26
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	27
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	28
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
3.1. O`zbekistonda ichki turizmning hozirgi holatining tahlili.....	29
3.2. O`zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishdagi asosiy muammolar.....	41
3.3. Turizmni rivojlantirishda ichki va tashqi omillar.....	49
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	56
XULOSA.....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	60
ILOVALAR.....	66

Keltirilgan jadvallar ro'yxati

1-jadval.	O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlar va turistik xizmatlar eksporti xajmi ko'rsatkichlari.....	35
2-jadval.	O'zbekistonda joylashtirish vositalarining ko'rsatkichlari.....	38
3-jadval.	O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan sub'ektlar soni.....	39

Keltirilgan rasmlar ro'yxati

1-rasm.	O'zbekistonda ichki turizm bilan shug'ullanuvchi turoperatorlar soni.....	32
2-rasm.	O'zbekistonda viza tartibi joriy qilingan davlatlar ko'rsatkichlari.....	37
3-rasm.	UzbekistanPass.com sayti	40

Keltirilgan qisqartmalar

- PQ-Prezident qarori
- PF-Prezident farmoni
- YaIM-yalpi ichki mahsulot
- BMT- Birlashgan Millatlar Tashkiloti
- BTT-Butundunyo Turizm Tashkiloti
- ETH-Erkin turistik hududlar
- MDH-Mustaqil davlatlar hamdo'stligi
- AQSh-Amerika Qo'shma Shtatlari
- IBM -Iqtisodiy baza modellari
- XCHM- "Xarajat-chiqarish" modellari
- EM -Ekonometrik modellar

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Ichki turizmni rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shadi, mahalliy bizneslarni qo'llab-quvvatlaydi va yangi ish o'rinlari yaratadi. O'zbekistonning boy madaniy merosi va tabiiy go'zalliklari bu sohada ulkan potentsialga ega. "Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o'rinlari va kambag'allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratib, ko'proq sayyohlarni jalb etish kerak"¹. Bu, mamlakatimiz aholisi, ayniqsa keksa avlod vakillariga ichki sayohatlar uchun imtiyozlar berish, xo'jalik sub'ektlari tomonidan sifatli xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash, turizm infratuzilmasini muntazam ravishda yaxshilab borish, turistik yo'nalishlarni rivojlantirish, kam ta'minlangan oilalar uchun imtiyozlar yaratish, zarur sharoitlarni yaratish hamda mamlakatimizda ichki turizmning mustahkam rivojlanishi uchun ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

Jahon turizm sanoati 2019 yil oxirida boshlangan COVID-19 pandemiyasi sababli katta inqirozga duch keldi. Bu inqirozni engish yo'llarini izlayotgan davlatlar, ichki turizmni faollashtirishga alohida e'tibor berishni maqsad qilib qo'yishdi². Ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omillarni tushunish, turistik jozibadorlikni hisobga olgan holda raqobatbardosh xizmatlar taklif qilish, yangi xizmat turlariga e'tiborni kuchaytirish, turizm sohasiga zamonaviy texnologiyalarni kiritish, mahalliy turizm zaxiralaridan oqilona foydalanish, maxsus turizm hududlarini yaratish orqali aholini ish bilan ta'minlash, infratuzilmalarni yaxshilash uchun investitsiyalar jalb qilish va Yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga hissa qo'shish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng yuritilmoqda.

O'zbekistonda ham ichki turizmni jonlantirish, xususan, zamonaviy

¹Ўзбекистон Республикаси Президент раислигида мамлакатимизнинг ички ва ташқи туризм салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари юзасидан видеоселектор йиғилиши маърузаси. 19 сентябрь 2022 йил / Янги Ўзбекистон. 2022 йил 19 сентябрь.

² <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/S1745-354220210000017009/full/html>